

## ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA METAFORA VA TARJIMA MASALASI

**Qurbonova Mavluda**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistri

[nqurbonov258@gmail.com](mailto:nqurbonov258@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Tilshunoslikning stilistika bo'limida metafora nutqning bezagi, fikr ifodalashning o'ziga xos shakli ekani e'tirof etiladi. Lingvomadaniy tadqiqotlar doirasida maydonga kelgan ilmiy qarashlar metaforani ma'lum bir xalqning milliy, o'ziga xos, spesifik dunyoqarashini ifoda etuvchi muhim vositalardan biri tarzida o'rganishning dolzarbligini ko'rsatdi. Metafora milliy dunyoqarashni ifodalovchi vositalardan biri ekanligi, ularni tarjimada qayta yaratishda tarjimon oldiga murakkab vazifani qo'yadi. Ushbu maqolada metaforani anglash va olam manzarasini tasvirlashda o'ziga xos usul sifatida qo'llashning zamonaviy yo'nalishlari tadqiq etildi. Bu o'rinda metaforani shakllantiruvchi elementlar, uning turlari, tarjima jarayonida metaforaning o'ziga xos xususiyatlari, muammolari o'rganildi.*

**Kalit so'zlar:** metafora, olam manzarasi, tarjima, metafora komponentlari

## THE PROBLEM OF METAPHOR AND TRANSLATION IN MODERN STUDIES

**Kurbanova Mavluda**

Master of Uzbek State University of World Languages

[nqurbonov258@gmail.com](mailto:nqurbonov258@gmail.com)

### ABSTRACT

*In the stylistics department of linguistics, it is recognized that metaphor is an ornament of speech, a unique form of expressing thoughts. The scientific views that appeared in the framework of linguistic and cultural studies showed the relevance of studying metaphor as one of the important tools that express the national, unique, specific worldview of a certain people. The fact that metaphor is one of the means of expressing the national worldview puts a difficult task before the translator in recreating them in translation. In this article, the modern directions of research of metaphor as a specific way of understanding and expressing the world were studied. In this place, the elements that form the metaphor, the types of the metaphor, the specific features and problems of their translation were studied.*

**Key words:** metaphor, world view, translation, metaphor components

## **ПРОБЛЕМА МЕТАФОРЫ И ПЕРЕВОДА В СОВРЕМЕННЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ**

**Курбанова Мавлюда**

[nqurbonov258@gmail.com](mailto:nqurbonov258@gmail.com)

Магистр Узбекского государственного университета

МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ

### **АННОТАЦИЯ**

*В стилистическом отделе языкознания принято считать, что метафора – это украшение речи, своеобразная форма выражения мысли. Научные воззрения, появившиеся в рамках лингвокультурологии, показали актуальность изучения метафоры как одного из важных средств, выражающих национальное, неповторимое, специфическое мировоззрение определенного народа. Тот факт, что метафора является одним из средств выражения национального мировоззрения, ставит перед переводчиком непростую задачу воссоздать их в переводе. В данной статье изучены современные направления исследования метафоры как специфического способа понимания и выражения картины мира. Здесь изучались элементы, образующие метафору, виды метафоры, особенности и проблемы их перевода.*

**Ключевые слова:** метафора, картины мира, перевод, компоненты метафоры.

### **KIRISH**

Bugungi kunda muayyan etnos tilining kognitiv, lingvokulturologik, psixo- va neyrolingvistik xususiyatlari, olamning manzarasini yoritishda tilning oʻrni, metafora va iboralarning kognitiv-semantik jihatlari, xususan, voqelikni konseptualashtirish va kategoriyalashtirish, shuningdek, metafora va iboralar yaratilishida shaxs ruhiyati omili kabi ustuvor yoʻnalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari hamda chet tilni oʻrganuvchilar uchun metafora, frazeologik birliklar, maqol-matallarni oʻqitish metodikalarini nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish, tarjimashunoslik fani rivojiga hissa qoʻshish, oʻzbek tilining boy fondi – metafora, paremiya va frazeologik tizimini qardosh va qardosh boʻlmagan tillar leksikologiya va frazeologiyasi bilan qiyosiy-chogʻishtirib oʻrganilmoqda (Baxronova, 2020).

Anaʼanaviy tilshunoslikda tarjimani tillararo oʻzgartirish jarayoni, bir tildagi matnni boshqa tilga transformatsiyasi, bir tildagi matnni ikkinchi tildagi muqobil matn bilan almashtirish, bir tilda bayon etilgan fikrlarni boshqa til vositalari bilan yetkazish jarayonlari oʻlaroq qabul qilinadi (BES, 2018). Tarjimashunoslikda

kognitiv va psixolingvistik yoʻnalishning taraqqiyoti natijasida tarjimaning adekvatligi, asl nusxaga mosligi, avvalambor, til oʻrtasidagi farqlarni tushunishga emas, balki muallif matni mazmun-mohiyatini tushunish, asliyat va tarjimaning konseptual mazmunidagi farqlar darajasi, kognitiv strukturasi mutanosib emasligi bilan belgilanadigan kommunikantlar ongi, yaʼni milliy oʻziga xos komponentlarning tarjima tiliga mos kelish-kelmasligini anglash bilan izohlanadi.

Tarjima nazariyasida metaforalar tarjimasida mashaqqat talab etuvchi masalalardan biri hisoblanadi. Bu masalaga bagʻishlangan ishlar har doim dolzarblik kasb etadi, zotan, badiiy asar tarjimoni koʻpincha metaforalarni tarjimada aynan berish borasida qiyinchilikka duch keladi. Sifatli tarjimani amalga oshirish uchun tarjimon nafaqat oʻz ona tilining kuchli bilimdoni, balki tarjima nazariyasi boʻyicha kerakli bilimga, amaliy tarjima qilish koʻnikmalariga hamda tarjima qilinayotgan asar xalqi madaniyati haqida ham chuqur maʼlumotga ega boʻlishi zarur.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Metafora oʻzi taalluqli boʻlgan tilning milliy madaniyatini bevosita aks ettiruvchi ekstralingvistik mazmun tashuvchisi hisoblanadi. Milliy-madaniy komponentni oʻz ichiga olgan birlik hisoblanuvchi metaforani tarjima qilish tarjimonidan fon bilimlarini tadqiq etish, muayyan til egalari olam manzarasining oʻziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi madaniy, bogʻlanishli assotsiatsiyalari kabi qatlamini chuqur oʻrganish talab etiladi (Vejbiskaya, 2019).

Zamonaviy kognitiv tilshunoslik metaforaning qiyoslash usuli, nutqni bezash usuli degan anʼanaviy taʼrifidan butunlay voz kechadi. Shuningdek, generativ tilshunoslikdagi N. Xomskiy, L.N. Murzin kabi olimlarning metafora bazaviy strukturalarining oʻzaro taʼsiri haqidagi taʼriflariga ham qoʻshilmaydi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning J. Lakoff, M. Jonson, N.Arutyunova, A.Baranov, Yu.Karaulov, V.Demyankov, Ye.Kubryakova kabi namoyandalari metafora olamni anglash, atrof-voqelikni tizimlashtirish va uni tushuntirish usulidir hamda metaforani kognitiv ongning asosiy mental operatsiyasi tariqasida oʻrganish zarurdir, deb taʼkidlaydilar. Shu tarzda, ikki soʻzning maʼnosini bogʻlaydigan metafora tasviriy vosita emas, balki ikki tushuncha maydonini birlashtiradigan va voqelik konseptualizatsiyasida manba doirasini shakllantirish imkonini beruvchi ongning asosiy amaliyoti (jarayoni)dir. Demak, metafora – bu, voqelikning spesifik konseptualizatsiyasi, inson tafakkuriga xos analogik imkoniyatlarning namoyon boʻlishidir. Inson nafaqat metafora vositasida fikrlaydi, balki metaforalar yordamida idrok qiladi, ular vositasida oʻz olamini yaqqolroq ifodalaydi.

D.Baxronovanning ta'kidicha, metafora metafora bo'lguncha, olamning oddiy manzarasidan to lisoniy manzaragacha "sayohat" qiladi. So'z birdaniga metaforaga aylanib qolmaydi. Shu sababli ular o'ziga tegishli jamiyatning "yuziga", madaniyatning kodiga aylanadi. Jumladan, metaforalarni har bir millat maqol, matal va aforizmlarida, kundalik muloqatlarda qo'llanilishi muayyan etnosgagina tushunarli sifatlarni, milliy-madaniy belgini kodlarni ifodalaydi (Baxronova, 2015).

Metafora ob'ektlarning bir sinfiga xos belgilarni boshqa ob'ektlar sinfiga yoki ulardan biriga – metaforaning asosiy (dolzarb) sub'ektiga mutanosiblikda tanlaydi. Metaforik ma'no uch komponentni bilishdan kelib chiqadi: denotatlarning ikki kategoriyasi va metaforizatsiya jarayonida tilga olingan denotat xarakteristikasi. Metaforada ishtirok etgan denotatlar kategoriyasining xarakteristikasi turli tillarda o'ziga xos ko'rinishda bo'ladi. Odatda, metafora til egalarining ushbu ob'ektlar kategoriyasi haqidagi umumiy, xususan, mifologik, madaniy, emotsional baholi konnotatsiyalarini o'z ichiga olgan tasavvurlari zaxirasiga oid bo'ladi (Guntekin, 2011, 2012).

D.Baxronova tadqiqotlarida o'zbek lisoniy manzarasidagi metaforik modellashtirishlar lingvomadaniy nuqtai nazardan o'rganilgan. Olimaning keltirishicha, bir hayvon nomi metafora sifatida ham ijobiy, ham salbiy xususiyatlarni bildirishi mumkin. Masalan, *ayiq* antropozoomorfizmi tashqi qiyofaga xos va fiziologik xususiyatlar doirasida insonning salbiy hamda ijobiy sifatlarini tavsiflab kelishi mumkin:

*ayiq* → salbiy: Befahm, beso'naqay, qo'pol, beg'am, jahldor; beo'xshov harakat qiluvchi odam; *U kotibni ayiqday befahm odam bo'lsa kerak deb o'ylagandi* (N. Eshonqul. Bevaqt chalingan bong, 46).

*ayiq* → ijobiy: Baquvvat, zo'r, kuchli. Erkak kishi haqida; *U, ta'bir joiz bo'lsa, ayiqday baquvvat, xushchaqchak inson ekan* (O. Yoqubov. Xotiralar, 137).

Gender munosabatlarni til nuqtai nazardan yoritishda ham metaforik belgilar muhim o'rin tutadi. O'zbek tilining lisoniy manzarasida *burgut* erk, ozodlik timsoli hisoblanadi. *Burgut* antropozoomorfizmi metafora va FBlar tarkibida kelsa, ko'chim markazida erkak kishi nazarda tutiladi. 1) (*Mirsalim*) *Qodirning burgut bo'lib tikilib turganini payqagandek, yuzini ters o'girib oldi* [Shuhrat. Oltin zanglamas, 307]; 2) *O'zi muloyim ko'ringani bilan, changalidan chayon ham chiqolmaydigan burgut bu qori!* [I.Rahim. Chin muhabbat, 49]. Ushbu matnlar mazmunida BURGUT ↔ ERKAK modeli metaforik model hisoblanadi (Baxronova, 2015).

## XULOSA

Yangi yuz yillikda tilshunoslik sohasida yuzaga kelgan tadqiqot yoʻnalishlari avvaldan anʻanaviy tilshunoslik doirasida tadqiq etilgan til hodisalari va til birliklarini boshqa nuqtai nazar va mezonlar asosida oʻrganishga keng yoʻl ochdi. Natijada maʼno koʻchishi usullaridan biri oʻlaroq, tahlil etilgan metaforani ham milliy dunyoqarashning inʻikosi sifatida oʻrganish imkonini yaratdi. Metaforani maʼlum bir millatning dunyoqarashini aks ettiruvchi unsurlardan biri sifatida baholanishi tarjimonlar zimmasiga yana bir muammoni – metaforalarni tarjima tilida qaytadan yaratish masalasiga yanada jiddiyroq yondashish masalasini qoʻyadi.

Malakali tarjimon vazifasi muallif gʻoyasini, muallifning reallik tasavvurini, individual mualliflik manazarasini – shaxsiy oʻziga xosligini koʻrish, xususan, metaforik idrokini qayta yaratib berishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun asl matndagi barcha komponentlarning strukturaviy-mantiqiy aloqalarini tushunish hamda tarjimada ularni ifodalash muhim ahamiyatga ega. Tajribali tarjimon muallif maqsadini aynan aks ettirishga harakat qilishi, demak, matnning strukturaviy-mazmuniy aloqalarini hamda mutanosib mental mazmunni faol saqlab qolishga intilishi kerak.

## REFERENCES

1. Бахронова, Д. К. (2016). Лингвокультурные особенности зооморфных фразеологических единиц. Вестник Челябинского государственного университета, (9 (391)), 36-43.
2. Бахронова, Д.К. (2015). Гендер и целевые концептуальные гендерные стереотипы // *Гендерные исследования в гуманитарных науках: сб. ст. по матер. III междунар. науч.-практ. конф. № 3.* – Новосибирск: СибАК, 2015.
3. Бахронова, Д. К. (2020). Метафоры в языковой картине мира (на материале английского и испанского языков). Молодой ученый, (1), 225-228.
4. *Большой энциклопедический словарь. (2018). Языкознание.* Гл. ред. Ярцева В.Н. – Москва. – 685 с.
5. Вежбицкая, А. (2019). Семантические универсалии и описание языков. – Москва. – 776 с. <https://search.rsl.ru/ru/record/01000598629>
6. Григорев, В.П. (2019). *Поэтика слова.* – Москва. – 343 с. <https://search.rsl.ru/ru/record/01007621182>
7. Güntekin, R. N. (2012). *Dudaktan Kalbe.* – Ankara: TDK. – 122 b.
8. Guntekin, R.N. (2011). *Muhabbat simfoniyasi / Tarjimon: Miraziz Aʼzam.* – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nashriyoti. – 154 b.

---

9. Ilhombaevna, T. I. The role of speech expressive means in Spanish poetics. International Journal of Business, Management and Social Research, 02, no. 02 (2016): 114-117.